“TEMIRYO‘LINFRATUZILMA” AKSIYADORLIK JAMIYATI

PERSONALNI TAYYORLASH MUASSASASI

Kasb nomi: Lokomotiv boshqarish mashinist yordamchisi.

Kvalifikatsiya(lar) nomi:

Teplovoz mashinist yordamchisi;
Elektrovoz mashinist yordamchisi;
Yuqori tezlikda harakatlanuvchi elektropoyezd boshqarish mashinist yordamchisi.

Ta’lim bosqichlari:

Malaka oshirish.

TOSHKENT – 2024

1. “Temiryo‘linfratuzilma” aksiyadorlik jamiyatining Personalni tayyorlash muassasasi tomonidan **ISHLAB CHIQILDI VA TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.**

2. Mazkur malaka talabi uchun me’yoriy huquqiy asoslar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4939-sonli Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi “O‘zbekiston respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-329-sonli Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi 287-sonli Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-sentabrdagi “Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 287-sonli Qarori.

3. “Temiryo‘linfratuzilma” aksiyadorlik jamiyatining Personalni tayyorlash muassasasi o‘quv-uslubiy kengashning 2024-yil 09-fevraldagi 1-son yig‘ilishida ma’qullangan va “Temiryo‘linfratuzilma” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 12-fevraldagi 24-JDS - son buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.**

Tuzuvchilar:	G.T.Axmedov	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi Mashinist va mashinist yordamchi-larini tayyorlash va qayta tayyorlash o‘quv markazi boshlig‘i;
	Yu.A.Umarov	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi Mashinist va mashinist yordamchi-larini tayyorlash va qayta tayyorlash o‘quv markazi o‘quv ishlari bo‘yicha boshliq o‘rinbosari;
	Z.F.Mirzaraxmedov	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi Mashinist va mashinist yordamchi-larini tayyorlash va qayta tayyorlash o‘quv markazi uslubiy bo‘lim boshlig‘i;
	F.A.Usmanov	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi Mashinist va mashinist yordamchi-larini tayyorlash va qayta tayyorlash o‘quv markazi maxsus fan o‘qituvchisi.
Taqrizchilar:	Sh.T.Tulyaganov	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Lokomotivlardan foydalanish boshqarmasi boshlig‘i;
	K.A.Jo‘raboyev	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi boshlig‘i;
	Sh.Sh.Ibragimov	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi o‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i;
	X.Sh.Suyunov	Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi o‘quv-uslubiy bo‘lim yetakchi mutaxassisi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati

“Temiryo‘linfratuzilma” aksiyadorlik jamiyati

LOKOMOTIV BOSHQARISH MASHINIST YORDAMCHISI KASBI BO‘YICHA MALAKA OSHIRISH KURSI

O‘QUV REJA VA DASTURI

Kvalifikatsiyalar nomi: Teplovoz mashinist yordamchisi;
Elektrovoz mashinist yordamchisi;
Yuqori tezlikda harakatlanuvchi elektropoyezd boshqarish mashinist yordamchisi;

Ta’lim bosqichi: Malaka oshirish.

Toshkent – 2024

"O'zbekiston temir yo'llari "aksiyadorlik jamiyati
“Temiryo‘linfratuzilma” aksiyadorlik jamiyati

Malaka oshirish o‘quv rejasi

Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (transport turlari bo'yicha)

Namunaviy o'quv reja

O'rta professional ta'lim darajasidagi kasb nomi	Kvalifikasiya nomi	O'qish muddati	O'qish shakli	QR kodi
Lokomotiv boshqarish mashinisti yordamchisi	Teplovoz mashinisti; Elektrovoz mashinisti; Yuqori tezlikda harakatlanuvchi elektropoyezd boshqarish mashinisti.	1,5 oy	Ishlab chiqarishdan ajralgan holda	

1. O‘quv reja

T/r	Bo‘lim hamda modullar nomi	Umumiy yuklama	Auditoriya mashg‘ulotlarining taqsomlanishi		
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot	Joylardagi mashg‘ulot
1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**
1.00	**Umumkasbiy fanlar:**	**112**	**106**	**6**	
1.01	Temir yo‘llardan texnik foydalanish qoidalari	36	36		
1.02	Temir yo‘l transportida mehnat muhofazasi	12	12		
1.03	Axborot texnologiyalari	8	8		
1.04	Xavfsizlik qurilmalari	12	12		
1.05	Avtomatik tormozlar	36	30	6	
1.06	Nostandart vaziyatlarda lokomotiv brigadalarining harakati	8	8		
2.00	**Maxsus fanlar:**				
2.1	**Teplovoz mashinist yordamchisi**	**104**	**92**	**12**	**0**
2.1.1	Teplovozlarning tuzilishi va ta‘miri	36	30	6	
2.1.2	Teplovozlarning elektr jihozlari	36	30	6	
2.1.3	Teplovozlarni boshqarish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish	32	32		
2.2	**Elektrovoz mashinist yordamchisi**	**104**	**80**	**24**	**0**
2.2.1	Elektrovozning mexanik va elektr jihozlari	32	24	8	
2.2.2	“O‘ZBEKISTON” elektrovozlarining mexanik va elektr jihozlari	36	26	10	
2.2.3	Elektrovozlarni boshqarish va ularga texnika xizmat ko‘rsatish	36	30	6	
2.3	**Yuqori tezlikda harakatlanuvchi elektropoyezd boshqarish mashinist yordamchisi**	**106**	**88**	**0**	**18**
2.3.1	Yuqori tezlikda harakatlanuvchi elektropoyezdlarning mexanik va elektr jihozlari	40	34		6
2.3.2	Yuqori tezlikda harakatlanuvchi elektropoyezdlarning boshqarish va ularga texnik xizmat ko'rsatish	34	28		6
2.3.3	Avtomatik tormozlar	32	26		6

1.01. O‘quv dasturiga umumiy talablar

Dastur nomi:	Temir yo‘llardan texnik foydalanish qoidalari
Ajratilgan soat:	36
Mavzular soni:	18
Dasturning maqsadi:	Texnikaviy foydalanish qoidalari, signallashtirish va poyezdlar harakati bo‘yicha yo‘riqnomalar asosida stansiya va peregonlarda poyezdlar harakatini hamda manyovr ishlarini tashkil etish va ularni boshqarishni o‘rgatish.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari:	Temir yo‘llardan texnik foydalanish qoidalarini va tegishli yo‘riqnomalarni bilish, Nizomlar bilan tanishish.
Bilimlar:	Temir yo‘l transporti xodimlarining umumiy majburiyati; Inshootlar va qurilmalarga qo‘yiladigan talablari; Harakat tarkibiga qo‘yiladigan talablari; Poyezdlar harakatining tartibi; Signallashtirish vositalari va svetoforlarni.
Ko‘nikmalar:	Temir yo‘llar liniyalarida poyezdlar harakati davrida lokomotiv brigadalarining qonun va yo‘riqnomalar asosida poyezdlarni boshqarishi, signallashtirish vositalarining talablarini o‘rganish, poyezdlarni boshqarishda bajarilishi talab qilinadigan shartlarni inobatga olish.
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fanning nomi:	Xavfsizlik qurilmalari, Temir yo‘l transportida mehnat muhofazasi, Avtomatik tormozlar, Nostandart vaziyatlarda lokomotiv brigadalarining harakati.
O‘qitishni tashkiliy shakli:	N – Nazariy ta’lim; A – Amaliy mashg‘ulot.
Dasturga qo‘yilgan talab:	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhda belgilangan o‘qitish tili asosida
Baholash tartibi:	Baholash bo‘yicha amaldagi tartib asosida
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash:	Yozma, og‘zaki, savol-javob, testlar

1.01. O‘quv dasturi mazmuni

T/r	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta’lim
1	Temir yo‘l transporti xodimlarining umumiy vazifalari. Gabaritlar.	Temir yo‘l transporti xodimlarining umumiy vazifalari haqida ma’lumot. Harakat xavfsizligini ta‘minlash. Yuk va yo‘lovchilarni tashishga bo‘lgan talabni qanoatlantirish. Texnika vositalaridan samarali foydalanish. Ekologiya va atrof-muxitni asrab avvaylash. C-Gabariti talablari, Cп-Gabariti talablari, T-Gabariti talablari, Tпр-Gabariti talablari, Tц-Gabariti talablari. Nogabaritlik zonalari va uning darajalari.	2	N	1
2	Stansiya yo‘lining rejasi	Yo‘l xo‘jaligining inshoot va qurilmalari.	2	N	1

	va profili. Relslar va strelkali o‘tkazgichlar.	Yo‘lning rejasi va profili haqida ma’lumot. Stansiyalarni qurishda ruxsat etilgan balandlik, nishabliklar va egrilik radiuslari. Strelkali o‘tkazgichlar rusumlari, toifalari, ularning nosozliklari va uning o‘lchamlari. Rusumini aniqlash.			
3	Temir yo‘llarning elektr ta’minoti inshoot va qurilmalari. G‘ildirak juftliklari.	Temir yo‘l elektr ta'minotining inshoot va qurilmalari haqida ma’lumot. I toifadagi elektr energiyasi. Akkumulyator zahirasi. Asosiy tizimidan zahiraviy tizimga o‘tishi. Elektr harakat tarkibining pantografida kuchlanish darajalari. Kontakt simining rels kallagining ustki sathidan balandligi. Harakat tarkibi g‘ildirak juftlari haqida ma’lumot. G‘ildirak juftliklari. G‘ildiraklarning ichki chegaralari orasidagi masofa. Belgi va tamg‘alar belgi markirovka qoidalarida. G‘ildirak juftliklarining yedirilishi (prokat). Lokomotivlarda greben balandligi.	2	N	1
4	Avtotirkama qurilmalari. Manyovrlarni amalga oshirish. Poyezdlar harakatida signallashtirish va aloqa vositalari.	Avtotirkama o‘qining rels kallaklaridan balandligi. Avtotirkama bo‘ylama o‘qlari orasidagi balandlik bo‘yicha farqi. Avtotirkamalarga texnikaviy foydalanish qoidalarining talablari. Mashinist lokomotivning birinchi vagoni bilan to‘g‘ri ulanishida majburiyatlari. Manyovr ishlarida ko‘rsatmalarni uzatishning asosiy vositalari. Manyovrlarda tezliklar. Manyovrlar rahbarining majburiyatlari. Manyovrlarni bajarayotganda lokomotiv brigadasi majburiyatlari. Poyezdlar harakatida signallashtirish va aloqa vositalari haqida ma’lumot. Avtomatik va yarimavtomatik yo‘l blokirovkalari poyezdlar harakati. Poyezd o‘tish svetoforining qizil chirog‘idan o‘tish tartibi.	2	N	1
5	Poyezdlarning harakatlanish tartibi. Peregonda poyezdning majburiy to‘xtashidagi xatti-harakatlar tartibi.	Poyezdlar harakati tartibi. Peregonlar va stansiyalardagi poyezdlar harakat tezligi. Sariq chiroqli svetofordan o‘tish tezligi. Boshi berk stansiya yo‘llariga qabul qilish. Tezlikni kamaytirishni talab qiladigan joyda harakat tezligi. Oraliq yo‘lda poyezdning majburiy to‘xtashidagi xatti-harakatlar tartibi haqida ma’lumot. Mashinistning majburiyatlari. Mashinist yordamchisining xatti-harakatlari. Poyezdni orqaga harakatlantirish. To‘xtashda tormozlanish tartibi.	2	N	1
6	Ko‘rinadigan va tovushli signallar. Svetoforlar	Temir yo‘llarda signallarning turlari haqida ma’lumot. Ko‘rinadigan signallar. Tovushli signallar. Kunduzgi signallar. Tunggi signallar. Petarda. Svetoforlarni o‘rnatish.	2	A	1

		Ularning ko‘rinishi uchun talablar. Lokomotiv brigadasini signallar asosida poyezdlarni boshqarishi. Svetoforlar haqida ma’lumot. Svetoforlar tasniflanishi. Svetoforlar ishlashi. Svetoforlar vazifalari. Svetoforlarning raqamlanishi.			
7	Signal ko‘rsatkichlari. Manyovr ishlarida qo‘llaniluvchi signallar. Poyezdlar va lokomotivlar belgilash uchun qo‘llaniladigan signallar.	Chiroqli ko‘rsatkichlar. Yo‘l raqamini ko‘rsatish marshrut ko‘rsatkichlari. Strelka ko‘rsatkichlari. Yo‘l cheklash qurilmalari ko‘rsatkichlari. Olib tashlash ko‘rsatkichlari. Poyezdlarda nosoz vagonlar mavjudligining ko‘rsatkichlari. Manyovr ishlarida qo‘llaniluvchi signallar haqida ma’lumot. Qo‘l signallari. Manoyvr svetoforlari. Saralash tepaligi svetofori. Ikkita oq-oy rangli signal. Takrorlash va lokomotiv svetoforlarini saralash tepaligida qo‘llash sharti va ularning usullari. Poyezdlar va lokomotivlarda qo‘llaniladigan signallar haqida ma’lumot. Poyezdning boshi bir yo‘lli uchastkalarda va ikki yo‘lli uchastkalarda. Yuqori tezlikda harakatlanuvchi yo‘lovchi poyezdining boshi bir yo‘lli uchastkalarda va ikki yo‘lli uchastkalarda tiniq-oq rangli chiroqlari bilan belgilanishi. Teskari yo‘llari bo‘ylab harakatlanayotgan poyezd boshi yoki vagonlarsiz harakatlanuvchi lokomotiv belgilanishi.	2	N	1
8	Tovushli signallar. Xabarlovchi signal va Hushyorlik signali. Xavf signallari.	Tovushli signallar haqida ma’lumot: To‘xtash, poyezdning jo‘natilishi, poyezdga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarga “Tormozla” talabi, poyezdga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarga “Tormozni bo‘shat” talabi. Poyezdninng stansiyaga to‘liq bo‘lmagan tarkibda kelishi haqida. Ikkilangan tortishda harakatlanganda va suruvchi lokomotiv bilan harakatlanganda beriladigan signallar. Taklif va hushyorlik tovushli signallari haqida ma’lumot. Xabarlovchi signal. Xabarlovchi signal teskari yo‘l bo‘ylab harakatlanganda. Signalchilar va kirish strelka postlari navbatchilari poyezd jo‘natilishi. Poyezdning yaqinlashishi haqida tovushli signallar. Xavf tovushli signallari haqida ma’lumot. Umumiy xavf signali. “Yong‘in xavfi” signali. “Havo xavfi” signali. “Radiatsiya xavfi” yoki “Kimyoviy xavf” signali.	2	N	1
9	Poyezdlarning avtomatik blokirovkada harakati.	Poyezdlarning avtomatik blokirovkada harakati haqida ma’lumot. Poyezdlarni qabul qilish va jo‘natish. Ikki yo‘nalishda harakatlanish uchun avtoblokirovka bilan jihozlangan bir yo‘llik peregonlarda harakati	2	N	1

		amalga oshirish. Guruhga birlashtirilgan chiqish (marshrut) svetoforlarining mavjudligida jo‘natilish. Avtoblokirovka nosozligida ishlash tartibi. Boshqaruv asboblarning ko‘rsatmalari bo‘yicha jo‘natish. Noto‘g‘ri yo‘lidan chiqish svetoforining taqiqlovchi ko‘rsatmasida poyezdni jo‘natish. Chiqish svetoforida yo‘nalishning marshrut (oq rang) ko‘rsatkichi nosozligida poyezdlar jo‘natish. Avtoblokirovka amal qilishini to‘xtatish. Telefon aloqasi vositalariga o‘tish. Avtoblokirovka bo‘yicha harakatni tiklash.			
10	Avtomatik lokomotiv signallashtirishda poyezdlarning harakatlanish tartibi.	ALS bo‘yicha poyezdlar harakat tartibi haqida ma’lumot. Temir yo‘llarning mustaqil signallashtirish va aloqa vositasi sifatida avtomatik lokomotiv signallashtirish bilan jihozlangan uchastkalarida poyezdlar harakatini amalga oshirish. Poyezdni peregonda yuritish tartibi. Stansiyalar bo‘yicha poyezdlarni qabul qilish, jo‘natish va o‘tkazish.	2	N	1
11	Yarim avtomatik blokirovkada poyezdlar harakati.	Yarim avtomatik blokirovkada poyezdlar harakati haqida ma’lumot. Yarim avtomatik blokirovkada poyezdlarni qabul qilish va jo‘natish. Poyezd stansiyaga kirish svetoforining taqiq ko‘rsatmasida qabul qilish. Yo‘l blokirovka qurilmalarini boshqarish apparati. Poyezdni jo‘natishdan oldin marshrutni tayyorlash. Yo‘l postlariga ega peregonlarda poyezdlar harakati. Signallashtirish, markazlashtirish va blokirovka qurilmalari nosozligi.	2	N	1
12	Elektr jezl tizimida poyezdlar harakati. Telefon aloqa vositalarida poyezdlarning harakati.	Elektr jezl tizimida poyezdlar harakati haqida ma’lumot. Peregonda tutashuvlar mavjudligida poyezdlar harakati. Elektr jezl tizimida poyezddarni qabul qilish va jo‘natish. Elektr jezllar tizimi nosozligida poyezdlar harakati va jezl apparatlarida jezllar miqdorini boshqarishni tartibga solish. Telefon aloqa vositalarida poyezdlarning harakati haqida ma’lumot. Poyezd telefonogrammalari jurnalini yuritish tartibi. Bir yo‘llik uchastkalardagi poyezdlar harakatida telefonogrammalar shakllari. Ikki yo‘llik uchastkalardagi poyezdlar harakatida telefonogrammalar shakli. Yo‘l qog‘ozi.	2	N	1
13	Barcha turdagi signallashtirish va aloqa vositalari ishlamaganda poyezdlarning harakati.	Barcha turdagi signallashtirish va aloqa vositalari ishlamaganda poyezdlarning harakati haqida ma’lumot. Barcha turdagi signallashtirish va aloqa vositalari ishlamaganda jo‘natish taqiqlangan	2	A	1

		poyezdlar. Barcha turdagi signallashtirish va aloqa vositalari ishlamaganda DSP tomonidan mashinistga beriladigan asos. Barcha turdagi signallashtirish va aloqa vositalari ishlamaganda bir yo‘llik peregonlarda poyezdlarning harakatlanish tartibi. Barcha turdagi signallashtirish va aloqa vositalari ishlamaganda ikki yo‘llik peregonlarda poyezdlarning harakatlanish tartibi. Mashinistning poyezdlarni boshqarish tartib qoidalari.			
14	Tiklash, o‘t o‘chirish poyezdlari, maxsus o‘zi yurar harakat tarkibi va yordamchi lokomotivlarning harakati.	O‘t o‘chirish, tiklash poyezdlari va yordamchi lokomotivlarni harkat tartibi haqida ma’lumot. Yordam so‘rab (yozma ravishda, telefon yoki radio aloqa orqali uzatilgan) tartibi. Tiklash va o‘t o‘chirish poyezdlariga tegishli qoidalar. Poyezdlarni mahkamlash. Tiklash, o‘t o‘chirish poyezdi, maxsus o‘zi yurar harakat tarkibi yoki yordamchi lokomotivni yuborish. Yordam to‘g‘risida talab qabul qilgan poyezd dispetcheri harakati.	2	N	1
15	Peregonda poyezd ajrab ketganda (uzilganda) mashinist va yordamchisi majburiyatlari.	Peregonda poyezd uzilganda mashinist majburiyati haqida ma’lumot. Sodir bo‘lgan voqea xususida xabar berish tartibi. Mashinist o‘z yordamchisi orqali tarkibning tekshirib ko‘rish tartibi. Poyezd tarkibini biriktirish. Peregonda poyezd qismlarini biriktirish taqiqlanadigan holatlar. Peregonni yopish va peregonda to‘xtab qolgan poyezdga yordam ko‘rsatish tartibi.	2	N	1
16	Poyezdni peregondan jo‘natilgan stansiyaga qaytishi. Peregonda to‘xtab qolgan poyezdga ortidan kelayotgan poyezd lokomotivi tomonidan yordam ko‘rsatilishi.	Poyezdni peregondan jo‘natilgan stansiyaga qaytishi haqida ma’lumot. Stansiya navbatchisi yoki poyezd dispetcheriga xabar berish tartibi. Poyezd peregondan yordamchi lokomotiv bilan qaytishi. Peregonda to‘xtab qolgan poyezdni jo‘natilgan stansiyaga qaytish tezligi. Peregondagi motorvagon poyezdlar, maxsus o‘zi yurar harakat tarkiblari va yakka lokomotivlarni yordam ko‘rsatishi. Peregonda to‘xtab qolgan poyezdga ortidan kelayotgan poyezd lokomotivi tomonidan yordam ko‘rsatilishi haqida ma’lumot. Dispetcherining buyrug‘ini olish normalari. Poyezd bo‘lib yordam ko‘rsatish qoidalari. Yakka lokomotiv bo‘lib yordam ko‘rsatish tartibi. Yordam ko‘rsatish mumkin bo‘lmagan holatlar. Yordam bergandan so‘ng peregonda qolgan harakat tarkibiga qaytish tartibi. Harakat tarkibini mahkamlash talablari.	2	A	1

17	Kirish svetoforining taqiq koʻrsatmasida poyezdlarni stansiyaga qabul qilish.	Kirish svetoforining taqiq koʻrsatmasida poyezdlarni stansiyaga qabul qilish haqida maʼlumot. Kirish svetoforining taqiq koʻrsatmasida stansiya navbatchisining hatti-harakatlari. Kirish svetoforining taqiq koʻrsatmasida poyezd dispetcherining harakatlar tartibi. Kirish svetoforining taqiq koʻrsatmasida poyezdning stansiyaga kirish tezliklari. Kirish svetoforining taqiq koʻrsatmasida poyezdning stansiya chegarasida toʻxtashi va toʻxtamasdan oʻtib ketishi koʻzda tutilgan holatlar.	2	N	1
18	Ogohlantirishlarni berish tartibi. Poyezdlarning vaqtni taqsimlash tartibida harakati.	Ogohlantirish blankasini berilish tartibi haqida maʼlumot. Ogohlantirish blankasini turlari. Ogohlantirish berilish tartibi. Ogohlantirish berilish turlari. Ogohlantirish blankasini toʻldirilish tartibi. Poyezdlarning vaqtni taqsimlash tartibida harakati haqida maʼlumot. Joʻnash tezliklari. Joʻnatilishi mumkin boʻlmagan poyezd turlari. Ajraladigan jezl asosida poyezdlarni boshqarish.	2	N	1

3. Oʻquvchilarning bilim va koʻnikmalarini baholash

Oʻquv dasturi davomida oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirilgan bilim va koʻnikmalar ichki nazorat boʻyicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, ogʻzaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat boʻlib, ular oʻquv elementini oʻzlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qoʻyilgan maqsadga hamohang boʻlishi lozim.

4. Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. “Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ va “Oʻztemiyoʻl nazorat” harakat xavfsizligi boʻyicha buyruq va farmoyishlari.
2. Oʻzbekiston Respublikasi temir yoʻllarida texnikaviy foydalanish qoidalari.
3. Oʻzbekiston Respublikasi temir yoʻllarida signallashtirish boʻyicha yoʻriqnoma.
4. Oʻzbekiston Respublikasi temir yoʻllarida poyezdlar harakati va manyovr ishlari boʻyicha yoʻriqnoma.
5. “Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ ning 2021-yil 15-yanvardagi 41-N buyrugʻiga ilova “Harakatlanish davrida ekstremal va nostandart vaziyatlar sodir boʻlganda lokomotiv brigadalari tomonidan amalga oshiriladiga xatti-harakatlar boʻyicha Yoʻriqnoma”.
6. www. pomogalo.ru
7. www.scbist.orj

1.02. Oʻquv dasturiga umumiy talablar

Dastur nomi:	Temir yoʻl transportida mehnat muhofazasi
Ajratilgan soat:	12
Mavzular soni:	6
Dasturning maqsadi:	Fanni oʻrganishning asosiy vazifasi, Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bilan tanishtirish
Oʻzlashtirish (oʻqitish) natijalari:	Temir yoʻllardan foydalanilganda texnika xavfsizligiga rioya qilgan holda harakatlanish. Mehnat muhofazasi qoidalarini anglash va bajarish.

Bilimlar:	- texnika xavfsizligi haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lish - mehnat muhofazasi talablari bilan tanishish - temir yo‘llarda harakatlanish talablarini o‘rganish - shaxsiy himoyavositalari klassifikatsiyasi bilan tanishish - ishlab chiqarish sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalarni o‘rganish
Ko‘nikmalar:	- mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi tushunchalarini ajrata oladi; - mehnat muhofazasi talablarini o‘z faoliyatida qo‘llash; - ta’mirlash uskunalarini sozligini ajratib oladi; - shaxsiy himoya vositalaridan foydalanadi va ularni boshqalarga nisbatan qo‘llay oladi; - o‘t o‘chirish qurilmalarini.
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fanning nomi:	Temir yo‘llardan texnik foydalanish qoidalari, Teplovozlarning tuzilishi va ta’miri.
O‘qitishni tashkiliy shakli:	N – Nazariy ta’lim.
Dasturga qo‘yilgan talab:	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhda belgilangan o‘qitish tili asosida
Baholash tartibi:	Baholash bo‘yicha amaldagi tartib asosida
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash:	Yozma, og‘zaki, savol-javob, testlar

1.02. O‘quv dasturi mazmuni

T/r	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta’lim
1	Mehnat muhofazasi bo‘yicha umumiy tushuncha.	Korxona va tashkilotlarda mehnat muhofazasi haqida tushuncha. Temir yo‘l transportida mehnat muhofazasi haqida umumiy tushuncha. Mehnat qonunchiligida huquqiy va tashkiliy masalalar. Mehnat muhofazasining nazariy va qonunchilik asoslari. Xavfsiz mehnat sharoitini yaratish tadbirlari. Texnika xavfsizligi muhandisining vazifalari. Yo‘riqnomalar. Mehnat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha davlat va jamoa nazorati. Mehnat xavfsizligi qoidalari buzilganda javobgarlik turlari.	2	N	1
2	Texnika xavfsizligi bo‘yicha yo‘riqnoma. Temir yo‘llarda harakatlanganda texnika xavfsizligi.	Texnika xavfsizligi bo‘yicha yo‘riqnomalar va ularning tasnifi. Nizom NBT-312. Yo‘riqnomalardan o‘tkazish tartibi va vaqti. Yo‘riqnoma NT87. Lokomotiv brigadalari uchun mehnat muhofazasidan yo‘riqnoma. Temir yo‘llarda texnika xavfsizligi uchun qo‘yiladigan talablar. Temir yo‘llarda	2	N	1

		harakatlanayotganda taqiqlanuvchi harakatlar.			
3	Ishlab chiqarishdagi xavfli omillar.	Korxona va tashkilotning ichki nizomi, faoliyati va joylashuv omillaridan kelib chiqib texnika xavfsizligi talablarini ishlab chiqish, uni amalda joriy etish va monitoring qilish. Shaxsiy muhofaza vositalari. Nafas olish a'zolarini himoya qiluvchi vositalar. Paxta-dokali niqob, respiratorlar, gazniqoblar va avtonom nafas olish apparatlari, ulardan to‘g‘ri foydalanish tartibi. Teri muhofaza vositalari. Xavf omillariga ko‘ra qo‘llaniladigan himoya kiyimlar, ulardan to‘g‘ri foydalanish tartibi.	2	N	1
4	Shaxsiy himoya vositalari va ularni tekshiruv muddati. Chilangarlik asboblariga mehnat muhofazasining talabi.	Shaxsiy himoya vositalari, ularning tasnifi, ahamiyati va farqlari. Foydalanishda e'tibor beriladigan elementlari. Ularda uchraydigan nosozliklar va ularni aniqlash usullari. Chilangarlik asboblari turlari. Asboblarning texnik tasnifi. Ulardan foydalanish jarayonidan e'tibor berish talab etiladigan elementlar. Uchraydigan nosozliklar, ularni aniqlash va bartaraf etish choralari.	2	N	1
5	Birlamchi o‘t o‘chrish vositalari va ularni qo‘llash.	11-N, Yong‘in xavfsizligi bo‘yicha buyruq. Birinchi yordam ko‘rsatish chora tadbirlari, uning muddati va davomiyligi. Yong‘inning oldini olish va o‘chirishni tashkil qilish, evokuatsiya chora-tadbirlari. O‘t o‘chirish vositalari. Yong‘inga qarshi tadbirlar. O‘t o‘chirish vositalarining turlari. Yong‘inni o‘chirish usullari. Avtomatik o‘t o‘chirish uskunalari. Yong‘in darakchilari va aloqa vositalari.	2	N	1
6	Elektr toki urganda va boshqa baxtsiz hodisalarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.	Elektr tokining inson organizmiga ta'siri. Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish tushunchasi, uning ahamiyati va bajarish tartibi.	2	N	1

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

4. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 22-sentabrda qabul qilingan “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (yangi taxriri) Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish

bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 286-sonli qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 10-sentabrda qabul qilingan “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi Qonuni.

1.03 O‘quv dasturiga umumiy talablar

Dastur nomi:	Axborot texnologiyalari
Ajratilgan soat:	12
Mavzular soni:	6
Dasturning maqsadi:	Fanni o‘rganishning asosiy vazifasi Kasbiy faoliyatda axborot xavfsizligi bilan tanishtirish
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari:	Lokomotivlarga o‘rnatilgan operatsion tizimlar bilan tashish, unda ishlash va zarur bo‘lgan vaziyatda ularga xizmat ko‘rsatish.
Bilimlar:	- kompyuterlar turlarini o‘rganish; - operatsion tizimlarini o‘rganish; - kompyuterdagi nosozliklarni aniqlash; - lokomotivlardagi boshqaruv dasturini o‘rganish; - kompyuter viruslari turlarini o‘rganish; - tarmoqlarni turlarini o‘rganish.
Ko‘nikmalar:	- lokomotivdagi bort kompyuteridan foydalanish; - bort kompyuterga ulanish va uni ishga tushirish; - fayl tizimlarini bilan tanishish va ularni ajratish; - kompyuter arxitekturasini aniqlash; - dasturlarni o‘rnatish, sozlash va qo‘llash; - kompyuyterlarni viruslardan himoya tizimi aniqlash ; - himoya dasturini qo‘llash.
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fanning nomi:	Teplovozlarning elektr jihozlari
O‘qitishni tashkiliy shakli:	N – Nazariy ta’lim.
Dasturga qo‘yilgan talab:	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhda belgilangan o‘qitish tili asosida
Baholash tartibi:	Baholash bo‘yicha amaldagi tartib asosida
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash:	Yozma, og‘zaki, savol-javob, testlar

1.03. O‘quv dasturi mazmuni

T/r	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta’lim
1.	Texnika xavfsizligi qoidalari. Kompyuter asosiy va qo‘shimcha qurilmalari.	Kompyuterlar tarixi, rivojlanish bosqichlari, qo‘llaniladigan sohalari. Kompyuter qurilmalarining afzalliklari va kamchiliklari.	2	N	1
2.	Kompyuterga texnik xizmat ko‘rsatish. Windows	Operatsion tizimlarning turlari, ularning farqlari, qo‘llanilish sohalari	2	N	1

	operatsion tizimi haqida tushuncha. Windows OT ni o‘rnatish va sozlash.	va foydalanishda e’tibor beriladigan elementlari. OT ni o‘rnatishda yo‘l qo‘yiladigan kamchiliklar va xatoliklar.			
3.	Microsoft Office dasturlari (Word, Power point, Excel), jihozlari bilan tanishish va ularda ishlash.	Dasturlarda uchraydigan nosozliklar. X86 va x64 tizimi. Dasturni qayta yuklash. Microsoft dasturlar paketi tarixi, rivojlanish bosqichlari, qo‘llaniladigan sohalari va kelajakda tadbiq etilishi mumkin bo‘lgan sohalari. Dasturlarning afzalliklari va kamchiliklari.	2	N	1
4.	Kompyuterda xavfsizlik masalasi. Kompyuterni viruslardan saqlash. Tarmoqlar va internet.	Kompyuterda xavfsizlik chora tadbirlarini ko‘rish va ularga rioya etishning ahamiyati. Virus va antivirus tushunchalari. Tarmoqlar va internet. Tarmoq turlari. Ularning topologiyasi. Tarmoq kamchiliklari va yutuqlari. Ulardan foydalanishda zaruriy bilim va ko‘nikmalarning ahamiyati va dolzarbligi.	2	N	1

3.O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

4. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Temir yo‘l transportida axborot tizimlari: o‘quv qo‘llanma / T.R.Nurmuxamedov, M.M.Rasulmuxamedov; O‘zbekiston Respublikasi transport vazirligi, Toshkent davlat transport universiteti. – Toshkent: Transport, 2021 yil;
2. M.M.Rasulmuxamedov, Dasturlash tillari va texnologiyalari. Toshkent – 2019 yil;
3. I.B.Aminov, X.A.Bustanov, S.Z.Raximov. Axborot texnologiyalari. SamDU tahririy nashriyot bo‘limi – 2020 yil;
4. M.Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov, M.Mamarajabov. Axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent - “Noshir” – 2009 yil.

1.04. O‘quv dasturiga umumiy talablar

Dastur nomi:	Xavfsizlik qurilmalarining tuzilishi
Ajratilgan soat:	12
Mavzular soni:	6
Dasturning maqsadi:	Fanni o‘rganishning asosiy vazifasi. Xavfsizlik qurilmalari bilan tanishtirish
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari:	Lokomotivlarga o‘rnatilgan xavfsizlik qurilmalarni tanishish, unda ishlash va zarur bo‘lgan vaziyatda ta’mirlash ishlarini amalga oshirish.
Bilimlar:	- Xavfsizlik qurilmalaridan foydalanishni o‘rganish; - Signallarning ahamiyati va farqlarini o‘rganish; - ALSN ning ahamiyati va zaruratini o‘rganish; - Boshqarishga tayyorgarlik ko‘rishni o‘rganish.
Ko‘nikmalar:	- Marshrut ma’lumotlarini KLUB-U ga kiritish;

	- Marshrut ma’lumotlarini KLUB-U da tekshirish; - Lokomotivni depoda qabul qilishda KLUB-U qurilmalarinini tekshirish; - Lokomotivni peregonda qabul qilish KLUB-U qurilmalarinini tekshirish; - ALSN tizimi tushunish va ularni ajratish; - Registrator kasetalarini sozlash; - KLUB-U buyuruqlarini qo‘llash; - Sun’iy yo‘ldosh bilan ishlash tizimini bilish; - Modullar va bloklarni ish tamoyilini ajratish va qo‘llash.
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fanning nomi:	Temir yo‘llardan texnik foydalanish qoidalari, Avtomatik tormozlar.
O‘qitishni tashkiliy shakli:	N – Nazariy ta’lim.
Dasturga qo‘yilgan talab:	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhda belgilangan o‘qitish tili asosida
Baholash tartibi:	Baholash bo‘yicha amaldagi tartib asosida
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash:	Yozma, og‘zaki, savol-javob, testlar

1.04. O‘quv dasturi mazmuni

T/r	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta’lim
1	ALSN ga kirish. Kuchaytirgich va deshifratorlar	ALSN haqida umumiy tushuncha. Uning vazifasi, foydalanish tartibi va bajaradigan ishi. Boshqa tizimlardan ALSN, ALSO, ALST larning farqlari. Kuchaytirgich va deshifratorlar haqida tushuncha. Signal turlari va ularning chastotalari. Toklarni o‘zgarmasdan o‘zgaruvchan tokga aylantirish tizimi haqida. Signallarni qabul qilishda uchraydigan nosozliklar. Signal uzatishda ishlatiladigan tizimlar.	2	N	1
2	Tezlik o‘lchagich 3CL2M.	ALSN da registratsiya qilish jarayoni, uni tahrirlash va zamonaviy saqlagichlarni afzaliklari. Ma’lumotlarni o‘qish, uning nosozliklarini aniqlash. Ma’lumotlarni to‘g‘ri va to‘liq o‘qilishida ahamiyat beriladigan elementlar.	2	N	1
3	KLUB-U tavsifi va KLUB-U tizimidagi bloklarning tarkibi va vazifasi. EPK, KON va PK.	KLUB-U tizimidagi bloklarning tarkibi va vazifasi haqida umumiy tushuncha. Bloklarning ulash, ularga texnik xizmat ko‘rsatish, uchraydigan nosozliklar va bir-biriga bog‘liqliklarini o‘rganish. Xavfsizlik bloki haqida umumiy tushuncha. EPK ning ishlash tartibi, uning KLUB-U ga bog‘liqligi. Ularni sozlash. KLUB-U dan	2	N	1

		foydalanishdagi xafsizlik choralari. KLUB-U ulangandan tizimdagi havo bosimi, lokomotivning holati va elektr zanjirga ulanganligini tekshirish. Unda uchraydigan nosozliklar va uning oqibatlari.			
4	Yagona majmua tizimi (YaMT)ning mantiqiy moduli. BUL-U, BKR-U, BSI bloklari va EK haqida tushuncha.	Yagona majmua tizimining modullari nomlari, ularni bajaradigan vazifalari, platalarning o‘zaro ma’lumot almashish tizimi. BUL-U tizimi, uning vazifasi va unda uchraydigan nosozliklar. BKR-U tizimi, uning vazifasi va unda uchraydigan nosozliklar. BSI tizimi, uning vazifasi va unda uchraydigan nosozliklar.	2	N	1
5	Yo‘l marshruti bo‘yicha KLUB-U dan foydalanish tartibi. Yagona majmua tizimida CAN haqida tushuncha.	Yo‘l marshruti bo‘yicha KLUB-U dan foydalanish tartibi. Marshrutga tayyorlanish, undan oldin beriladigan komandalar, peregonda beriladigan buyruqlar. Peregon jihozlanganligidan kelib chiqib beriluvchi buyuruqlar. CAN tarmoq kabelining tavsiflanishi, uning afzalliklari, zarurati va ma’lumot almashinish tezligi. Kabellarda uchradigan nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari.	2	N	1
6	BIL va BIL-POM bloklari. SNS haqida tushuncha. Safar oldidan KLUB-U tizimiga buyruq ma’lumotlarini kiritish.	BIL yordamida ishlayotga buyruqlarni ekranga chiqarish, ularni aniqlash va ajratib olish. SNS tushunchasi. Uning KLUB-U uchun ahamiyati. Lokomotivni depoda qabul qilishda KLUB-U da ishlash. Lokomotivni peregonda qabul qilishda KLUB-U.	2	N	1

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

4. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. KLUB-U yo‘riqnomasi;
2. Инструкция по эксплуатации тормозов подвижного состава железных дорог. Т., ГАЖК, 2000 г;
3. D.Zoirova. Temir yo‘l transportida avtomatik tormozlar. T., “O‘qituvchi”, 2006-yil;
4. “Lokomotivlar va MVHT larning tormoz qurilmalariga texnik xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash va sinovdan o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnomasi” T-161, 14.06.2001 y;
5. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ning 2021yil 15 yanvardagi 41-N buyrug‘iga ilova “Harakatlanish davrida ekstremal va nostandart vaziyatlar sodir bo‘lganda lokomotiv brigadalari tomonidan amalga oshiriladiga xatti-harakatlar bo‘yicha Yo‘riqnoma”.

1.05 O‘quv dasturiga umumiy talablar

Dastur nomi:	Avtomatik tormozlar
Ajratilgan soat:	36
Mavzular soni:	14
Dasturning maqsadi:	Avtomatik va avtomatik bo‘lmagan tormozlarni farqlash, tormoz turlarini bilsh, komressor karteridagi moy hajmini aniqlash va uni almashtirish, klapanni almashtirish, yordamchi tormoz kranini ishlatish, lokomotiv va vagonda tormoz kolodkasini almashtirish, elektropnevmatik tormozni ishlata olish, tormoz uskunalari holatini tekshirish, lokomotiv va poyezdlarning tormozlariga xizmat ko‘rsatishni o‘rgatish. Mashinist kranlarini tekshirish va ularni ishlatish. Havo taqsimlagichlarini ishlata olish.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari:	Olingan bilimlarni kelajakda o‘z kasbiy faoliyatidagi o‘rni, poyezdlar tormozlarining rivojlanish yo‘nalishlari va ularni mukammalashtirish, ishqalanish kuchlari va ulashishi, tormoz kuchini olish uchun harakat tarkibida qo‘llaniladigan tormoz tizimlari va uskunalari, tormozlarga xizmat ko‘rsatish tartibi, tormozlar ishonchliligi va boshqaruvi, tormoz kuchini kelib chiqishi to‘g‘risida bilishi.
Bilimlar:	- tormozlar turlari, tormozlash asoslari; - tormoz uskunalarini pnevmatik va mexanik sxemalari; - tormozlarni ekspluatatsiyasi; - lokomotivda kompressorlarni ishlashi va tuzilishi.
Ko‘nikmalar:	- tormoz yo‘lini hisoblash normogrammalari bilan aniqlash; - tormoz uskunalarini asosiy ishchi holatlariga izox berish, tormoz tizimlarini solishtirishi; - tormozlarning umumiy holatini baxolash; - har-xil turdagi kompressorlarning (kt – 6tl, kt – 6, kt – 7) tuzilishini aniqlashi; - tormozlarga texnik xizmat ko‘rsatish; - poyezdlar uchun zarur bo‘lgan tormozlar miqdorini aniqlash; - VU-45 ma’lumotnomasini to‘g‘ri to‘ldirilganini tekshirish.
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fanning nomi:	Temir yo‘llardan texnik foydalanish qoidalari, elektrovozlarning mexanik va elektr jihozlari.
O‘qitishni tashkiliy shakli:	N – Nazariy ta’lim; A – Amaliy mashg‘ulot.
Dasturga qo‘yilgan talab:	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhda belgilangan o‘qitish tili asosida
Baholash tartibi:	Baholash bo‘yicha amaldagi tartib asosida
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash:	Yozma, og‘zaki, savol-javob, testlar

1.05 O‘quv dasturi mazmuni

T/r	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta`lim
1	Tormozlar haqida umumiy ma’lumot.	Tormoz kuchi, uning hosil bo‘lishi va aniqlanishi. Tormoz kolodkalarining turlari. Kompozitsion kolodkalarning qo‘llanilishi va ularning afzalliklari. Ilashish va ishqalanish koefitsentlari, ularga bog‘liq bo‘lgan omillar. Tormozlash turlari, tormoz masofalari va ularni aniqlash.	2	N	1
2	Tormozlash asoslari. Tormozlarning tasnifi va ularning asosiy xususiyatlari.	Tormoz yo‘li haqida umumiy tushuncha va uning aniqlanish usullari. Harakatlanayotgan lokomotivga ta’sir etayotgan kuchlar. Tormoz tizimidagi asosiy nosozliklar va ularni bartaraf etish.	2	N	1
3	Kompressorlarning vazifasi, turlari, xususiyatlari va ishlashi.	KT-6el, EK-7B, KT-6 va KT-7 kompressorlarga qo‘yilgan talablar, ularning tuzilishi, asosiy xususiyatlari, ishlash prinsipi. Kompressorlarga qo‘yilgan talablar. Pnevmatik sxemasi va nosozliklarini aniqlash. Texnologik tasnifi. Mavsumga o‘tkazish holatlari (qish va yozgi).	2	N	1
4	Bosim regulyatorlarining vazifasi, turlari va tuzilishi.	Ak-11B bosim regulyatorlari tuzilishi va ishlash prinsipi. AK-11B bosim regulyatoriga qo‘yilgan talablar. AK-11B regulyatorining asosiy xususiyatlari va nosozliklari, hamda uni bosimga moslashtirish. Bosh rezervuarlar tuzilishi.	2	N	1
5	Lokomotivlarda ishlatiladigan mashinist kranlarning turlari.	№394 va №395 mashinist kranlariga qo‘yilgan talablar. Ularning vazifasi, tuzilishi, holatlari hamda ularning nosozliklari. №394 va №395 mashinist kranlarining barcha pozitsiyalariga qo‘yilgan talablar. Mashinist kranlarining tuzilishi, ishlash prinsipi, nosozliklari va asosiy xususiyatlari.	4	A	2
6	KM-130 elektron turdagi mashinist kranining turlari, vazifalari va ko‘rinishlari.	KM-130 elektron turdagi mashinist kranlarining tuzilishi, asosiy xususiyatlari va ishlash prinsiplari. KM-130 RD ning vazifasi, ko‘rinishi va foydalanish bo‘yicha tushunchalar. KM-130 KAET ning vazifasi, ko‘rinishi va foydalanish bo‘yicha tushunchalar	8	N	4
7	KM-130 mashinist krani	MPR (KRUA va KRUL) ning tuzilishi,	2	N	1

	tutqichining barcha pozisiyalarida ishlashi. MPR (KRUA va KRUL) ning vazifasi, tuzilishi va faoliyati.	ishlash prinsipi va asosiy xususiyatlari. KM-130 mashinist kranlariga barcha pozisiyalariga qo‘yilgan talablar.			
8	Lokomotivning yordamchi tormoz krani turlari, tuzilishi va vazifalari.	№ 254 va №215 yordamchi tormoz kranlarining tuzilishi, ishlashi, asosiy xususiyatlari va nosozliklari. № 254 va №215 yordamchi tormoz kranlarining bir-biridan farqi, sxemada ishlashi. №254 yordamchi tormoz kranining holatini tekshirish, sozlash va nosozliklarini aniqlash usullari.	4	A	2
9	Lokomotiv tormozlarini bloklovchi qurilmaning vazifasi, tuzilishi va holatlari.	№367M lokomotiv tormozlarini bloklovchi qurilmaning vazifasi, holatlari haqida umumiy ma’lumot. №367M bloklash klapanlarining ishlash tartibi, V1, V2 ventillarining tuzilishi va ishlashi.	2	A	1
10	Tezlik o‘lchagichlarning tasmalarini dekodlash asoslari.	3CL-2M tezlik o‘lchagichning ko‘rinishi va vazifasi. Tezlik o‘lchash tasmalarini tahlil qilish asoslari haqida ma’lumot. Yozuv parametrlarining joylashishi. Yozuv lentalari haqida ma’lumot.	2	N	1
11	Yo‘lovchi poyezdlarining tormozlarini to‘liq sinash usullari.	Yo‘lovchi va yuk-yo‘lovchi poyezdlarida tormozlarni to‘liq sinovdan o‘tkazish uchun 41-N qo‘llanma asosida ishlarni amalga oshirish tartibi.	2	N	1
12	№ 304 va №404 bosim relesining vazifasi, tuzilishi va ishlashi.	№ 304 va №404 bosim relesining joylashuvi, vazifasi, tuzilishi va ishlashi, bir-biridan farqi. Qishgi va yozgi mavsumlarda qurilmalardan foydalanish tartiblari.	2	N	1
13	Elektr havo taqsimlagichlar turlari, ko‘rinishi, vazifalari va ishlash prinsiplari.	№305-0002 elektr havo taqsimlagichning №305-0001 dan asosiy farqi, vazifasi, joylashuvi, ko‘rinishi, nozosliklari haqida umumiy tushunchalar.	2	N	1
14	Elektropnevmatik tormoz qurilmalarining lokomotiv va vagonlarda joylashishi. Pnevmatik va elektro pnevmatik tormozlarning qiyosiy tavsiflari. VR №483 havo taqsimlagichning vazifasi va uning xususiyatlari	Elektropnevmatik tormoz qurilmalarining lokomotiv va vagonlarda joylashishi tartibi. Pnevmatik va elektropnevmatik tormozlarning qiyosiy tavsiflari haqida ma’lumot. Elektropnevmatik tormozlash qurilmasining ishlash prinsipi va elektr sxema bo‘yicha nosozliklari haqida ma’lumot. VR №483 havo taqsimlagichning vazifasi va uning xususiyatlari, joylashuvi, vazifasi va uning xossalari, ikki kamerali rezervuarning vazifasi, asosiy va magistral bo‘limlarining ishlash holatlari.	2	N	1

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

4. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Инструкция по эксплуатации тормозов подвижного состава железных дорог. Т., ГАЖК, 2000 г;
